

O‘ZBEKISTONDA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI QABUL QILISH JARAYONLARI

Husanboyev Shoxjaxon

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni (NHH) ishlab chiqish va qabul qilishning huquqiy mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy normalarning tarixiy ildizlari, jumladan, Qadimgi Sharq qonunchiligi va Xammurapi qonunlaridagi tartib-taomillar hozirgi davr bilan qiyoslanadi. Maqolada NHH tushunchasiga nazariy ta’rif berilib, uning asosiy xususiyatlari va ijtimoiy normalardan farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, hujjatlarni qonun va qonunosti hujjatlariga tasniflash mezonlari, loyihalarni rejalashtirish, ekspertizadan o‘tkazish (huquqiy, iqtisodiy, korrupsiyaga qarshi), Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olish hamda rasmiy e‘lon qilishning o‘ziga xos bosqichlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** normativ-huquqiy hujjat, huquq ijodkorligi, qonun loyihasi, huquqiy ekspertiza, ijtimoiy norma, qonunosti hujjati, davlat ro‘yxati, rasmiy nashr, huquqiy texnika, qonuniylik.*

Tarixni o‘rganish jarayonida shu narsa aniq bo‘ladiki, har bir paydo bo‘lgan davlat boshqaruvning turli usullaridan foydalanadi. Masalan eng ommalashgan usullardan biri monarxiya va diktatura turlaridir. Ammo turli davrlarda davlat paydo bo‘lganda ham umumiy jihat mavjud. Bu jihat shundan iboratki – har bir davlat asoschi o‘z boshqaruvini qonuniylashtirishga, huquqiy asoslantirishga harakat qiladi. Bu esa ilk normalarning vujudga kelishiga, ularning takomillashishi natijasida esa normativ-huquqiy hujjat va qonunlar paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Norma tushunchasi nima va uning jamiyat va davlat shakllanishidagi o‘rni nimada

ekanligi anaqlashtirgan holda, normativ-huquqiy hujjat va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati va uning qabul qilinishdagi bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.

Norma – jamiyatning muayyan bir sohada amal qilishi lozim bo‘lgan, belgilangan tartib yoki mezonni anglatuvchi keng qamrovli tushunchadir. Norma bu butun jamiyat va davlat faoliyatini tartibga solish mexanizmidir. Norma tushunchasi umumiy bo‘lganligi sababli olimlar uni ma’lum bir qismlarga ajaratishgan: umumiy normalar, ijtimoiy normalar va h.k.lar. Maqolada huquqiy norma tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamda normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishdagi rolini ko‘rib chiqamiz.

Huquqiy normani ta’riflashda birinchi navbatda uning ijtimoiy normalarning bir turi ekanligiga e’tibor qaratish lozim. Ijtimoiy normalar kishilik jamiyati turmush tarzi uchun xos bo‘lib, odamlar va ularning uyushmalari o‘rtasidagi turli-tuman aloqalar hamda munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Bunday qoidalar qatoriga kishilar va ularni guruhlarining o‘zaro munosabatlarini, yurish-turish va xulq-atvorini tartibga soluvchi barcha axloqiy, diniy, siyosiy, korporativ, huquqiy va boshqalar kiradi. Professor X.T. Odilqoriyev o‘zining “Davlat va huquq nazariyasi” kitobida huquq normasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki ma’qullangan, bajarilishi hamma huquq subyektlari uchun umummajburiy bo‘lgan, davlatning majburlov kuchi bilan muhofazalanadigan, ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini o‘zida mujassam etgan va aniq shaklda ifodalangan xatti-harakati mezoni, yurish-turish qoidasidir”¹. Professor Z. Muqimov “Chet (xorijiy)

¹ X.T. Odilqoriyev. “Davlat va huquq nazariyasi”/ Adolat. T – 2018. 255-bet
SJIF: 5.051

mamlakatlar davlati va huquqi tarixi” nomli maqolasida shunday keltiradi: “Qadimgi Sharq mamlakatlari huquqiy tizimida ibtidoiy urug‘doshlik tuzumidan saqlanib qolgan odatlar, marosimlar qoidalar va an’analar aks etgan”. Bu davrda huquq hali ma’lum tizimga bir qolipga solinmaganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, huquq tizimining hali tarmoqlarga bo‘linishi ham aytarli sezilmas edi. Bu davrning qoidalarida moddiy va protsessual normalar qorishib ketgan edi. Masalan “jazo tizimida jamoa bo‘yicha javobgarlik, bir kishining jinoyati uchun oila a‘zolarining javobgarligi, jazo tayinlashda talion –“ko‘zga ko‘z, tishga tish” prinsipini, sud yuritish ishlarida ordaliya—sinab ko‘rish tizimini mavjudligini ko‘rishimiz mumkin”² Shuningdek, “Mill.av.uchinchi ming yillik oxirgi podsho Ur-Nammuning qonunlari, Isina hukmdori Lippid Ishtarning qonunlari, Esnuna hukmdori Bilalam qonunlari (mil.av. ikkinchi ming yillik boshlari), O‘rta Ossuriya qonunlari (mil.av. ikkinchi ming yillik boshlari), Qadimgi Bobil hukmdori Xammurapi (1792-1750-yillari) qonunlari. Mazkur normalar asosan 3 qismga bo‘lanadi:

- 1) Kirish;
- 2) Sudnoma (asosiy qisim);
- 3) Xulosa hisoblanadi. Ushbu manabalarning ilk huquqiy normalarning yorqin misolidir va ular asosan davlat hokimiyatini kuchaytirishga, qulchilik va mulkchilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan”³

Mamlakatimizda huquqni ifodalashning asosiy shakli—normativ-huquqiy hujjatlardir. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” O‘RQ-682-son qonuni mavjud. Ushbu Qonuning 1-

² Muqimov Z. Chet (xorijiy) mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. T.:”Akademnashr” 2012.-27-bet.

³ Muqimov Z.Chet (xorijiy) mamlakatlar davlati va huquqi va tarixi /Z.Muqimov.-T.:”Akademnashr” 2012.-30-34-betlar).

moddasida normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini ushbu hujjatlarning o‘zaro yuridik kuchi, nisbati va h.k.lar haqida berilgan⁴. Ushbu qonunning

3-moddasida normativ-huquqiy hujjat tushunchasi quyidagicha ta’rif beriladi: “Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umumiy majburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir”. Professor X.T.Odilqoriyev Normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Normativ-huquqiy hujjat deganda, davlat vakolatli organlarning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan umumijburiy tusdagi o‘rnatuvchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquqiy ijodkorlik hujjati tushuniladi”⁵. Huquqiy normativ hujjat shakli demokratik huquqiy jamiyat sharoitida mamlakat xo‘jalik, siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotiga davlat yo‘li bilan rahbarlik qilishning eng maqbul shaklidir. Normativ-huquqiy hujjatlar o‘zining quyidagi uch xususiyati bilan ijtimoiy normalarining boshqa turlaridan ajralib turadi:

1) normativ-huquqiy hujjatlar vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umumiy majburiy qoidalarni o‘rnatadi, o‘zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi;

2) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya’ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari ifoda etiladi;

3) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlashgan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo‘yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son 1-modda.

⁵ X.T. Odilqoriyev. “Davlat va huquq nazariyasi”/ Adolat. T – 2018. 220-bet.

Har bir mamlakatda normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va uni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdorlar shaxslar belgilangan. Masalan Amerika Qo'shma Shtatlarida Kongress federal qonunlarni qabul qiladi prezident esa federal darajadagi ijroiya buyruqlarni (Executive orders) chiqaradi. Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari;⁶

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ko'ra normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi. Va normativ-huquqiy hujjatlar yuridik jihatdan ikkiga bo'linadi: qonun va qonunosti hujjatlaridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari qonun hujjatlaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mahalliy davlar hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir⁷.

Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash huquq yaratishdagi dastlabki jarayon bo'lib, u hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirishdan boshlanadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son 6-modda.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son 7-modda.

Qonunchilikka ko‘ra, hujjatni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan organ ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yoki huquqiy normalarni takomillashtirish maqsadida loyiha tayyorlashning joriy (1 yilgacha bo‘lgan muddatga) yoki istiqbolga (bir yildan ortiq muddatga) mo‘ljallangan muddatini belgilab olishi mumkin. Muddatning belgilanishi hujjatning zaruriyati va ahamiyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizdagi normativ-huquqiylarni qabul qilish tashabbusi va ularning qabul qilinishi uchun ko‘plab bosqichlardan o‘tishi lozim.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash zarur harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Ushbu harakatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

loyihani tayyorlash haqidagi taklifni ko‘rib chiqish va uni tayyorlash bo‘yicha qaror qabul qilish;

loyiha tayyorlashni tashkiliy-texnikaviy va moliyaviy jihatdan ta‘minlash;
zaruriy materiallar va axborotlar to‘plash;

loyiha kontseptsiyasi bayon qilingan tushuntirish xatini ishlab chiqish;

loyihani tuzish⁸;

huquqiy va boshqa zaruriy ekspertizadan o‘tkazish.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunlar va qonun osti hujjatlarga bo‘linganligi ularni ishlab chiqish va amalga kiritishda o‘ziga xos ayrim jihatlarga egaligini namoyon etadi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilinishida farqli tomonlar mavjud.

Qonunlar tarkibiga kiruvchi Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, oddiy qonunlar, kodekslar, Oliy Majlis palatalarining qarorlarining loyihalari “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son 21-modda.
SJIF: 5.051

Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun uni ishlab chiqayotgan tashkilot ishchi guruh yoki maxsus komissiya tuzishi mumkin. Ishchi guruh tarkibiga manfaatdor tashkilotlar vakillari, sohaning yetuk mutaxassislari kiritilishi hujjatlarning sifatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishida qonun hujjatlarining holati, loyihani tartibga solish predmeti bo'yicha qo'llanilish amaliyoti o'rganiladi. Jarayonda muayyan sohani huquqiy tartibga solishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kamchiliklar va ziddiyatlar hamda samadorlikni ta'minlashga olib keluvchi omillar aniqlanadi hamda eskpertyiza hulosasi olinadi ⁹.

Loyihalar tayyorlanishida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va milliy o'ziga xosligimizdan kelib chiquvchi asoslarga tayaniladi. Bu ishlab chiqilayotgan loyihaning xalqaro standartlar va ma'naviy qadriyatlarimizga mos kelishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qo'yilishi hujjatlardagi kamchilik va ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadlarida amalga oshiriladi. Bunda ishtirokchilar muhokamadan oldin hujjat matni bilan tanishtirilishi lozim.

Hujjatning muhokamasi loyihani tugallanganligini anglatmaydi. Zero, u ekspertizadan o'tkazilishi lozim. Hujjat loyihasi uni ishlab chiquvchi yoki qabul qiluvchi organ qaroriga muvofiq iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, ekologik, korruptsiyaga qarshi yoxud boshqa turdagi ekspertizadan o'tkaziladi. Ekspertlar

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son 25-modda.
SJIF: 5.051

normativ-huquqiy hujjat loyahasini tayyorlashda ishtirok etmagan tashkilot vakillaridan tanlanadi¹⁰.

Normativ-huquqiy hujjat loyahasining huquqiy ekspertizasi o'tkazilishida hujjatning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarga, yuridik texnikaga rioya qilinganligi va boshqa holatlar inobatga olinadi. Huquqiy ekspertiza boshqa turdagi ekspertiza o'tkazilganidan keyin tegishli adliya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazilish loyihani normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organga kiritishga asos bo'ladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza yakunlari bo'yicha xulosasi va tushuntirish xati bilan kiritilib, unga hujjatning zarurligi, mazmuni, ishlab chiqaruvchi, zarur hollarda moliyaviy, statistik va boshqa ma'lumotlar ilova qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar oddiy, sodda va ravon tilda bayon etilishi talab qilinadi. Me'yorlarni badiiylashtirilgan holda, ya'ni ko'p ma'noli so'zlar, iboralar, kinoya, majoziy taqqoslashlar orqali bayon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shuningdek moliyalashtirish, rag'batlantirish, mukofotlash yoki nazorat qilish holatlari ko'rsatilishi mumkin. Ayrim normative huquqiy hujjatlar muqaddima va javobgarlik choralari qismlariga ega bo'lishlari ham mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarda huquqiy normalar raqamli bandlar bilan tartiblanadi. Ulardan farqli ravishda, qonunlar tartib raqamli moddalarda bayon etiladi. Moddalar qismlari bandlardan, xatboshilardan iborat bo'lishi mumkin.

¹⁰ Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-Toshkent:Adolat,2007.-653-654-bet.
SJIF: 5.051

Hajmi yirik hujjatlarning mazmun jihatdan yaqin bo'lgan moddalari paragraflarga, boblarga birlashtiriladi. Zarur hollarda atamalar izohi hujjatdan o'rin olishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarda uning kuchga kirishi muddati qonunda nazarda tutilgan hollarda ko'rsatilishi kerak bo'ladi. Hujjatlar o'z rekvizitlariga ega bo'lib, unda hujjat turi va nomi, qabul qilingan joyi va sanasi, tasdiqlagan shaxsning lavozimi, imzosi, ismining bosh xarfi va familiyasi aks etadi. Normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matni unga imzo qo'yish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tasdiqlangan hujjatlari qabul qilingandan boshlab 10 kun ichida O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligiga taqdim etilishi zarur. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganligi uning kuchga kirishini to'xtatib qo'yadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirishi uning e'lon qilinishi bilan bog'liq holda boshlanadi. E'lon qilinmagan qonun hujjati javobgarlik yoki jazo kelib chiqishiga asos bo'lib xizmat qilmaydi. Normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e'lon qilinishida barcha rekvizitlar ko'rsatiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari e'lon qilingandan so'ng bir kun ichida tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi shart.

Har bir davlat organi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy manbalar orqali e'lon qilinadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi", "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami", "Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" gazetalari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi Oliy Majlis va Prezident

tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar uchun rasmiy manba sanaladi.

Vazirlar Mahkamasi hujjatlari “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami”,

“Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetolari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning rasmiy hujjatlari ularning o‘z rasmiy nashrlari bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetolari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasidan ham o‘rin oladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi va ularning rasmiy nashrlarida e’lon qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning e’lon qilinishi uning kuchga kirishini ta’minlaydi. Ayrim hollarda hujjatning kuchga kirishi e’lon qilingandan keyinroqqa belgilanishi mumkin bundan maqsad qabul qilingan hujjatning jamoatchilik hayotiga tatbiq qilinishiga ma’lum bir zarurligini anglatadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirishi hudud bo‘yicha, vaqt bo‘yicha hamda sub’ektlar bo‘yicha farqlanishi mumkin. Bu shuni anglatadiki ayrim qabul qilingan normative huquqiy hujjatlar faqat aniq bir sohasini tartibga solishga qaratilgan va uning ijrosi ham shu sohada ish olib borayotgan vazirlik boshqa davlat organi zimmasiga yuklatiladi

Normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo‘yicha har bir vakolatli organ o‘z vazifasini bajaradi. Konstitutsiya va qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari,

Prezident farmon va qarorlarining ijrosi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladi va ta'minlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar hamda mansabdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etadilar va uni ta'minlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-Toshkent:Adolat, 2007.-653-654-bet.
2. Muqimov Z. Chet (xorijiy) mamalakatlar davlati va huquqi tarixi. T.:Akademnashr 2012.-27-bet.
3. Muqimov Z. Chet (xorijiy) mamlakatlar davlati va huquqi va tarixi /Z.Muqimov.-T.:”Akademnashr” 2012.-30-34-betlar).
4. X.T. Odilqoriyev. “Davlat va huquq nazariyasi”/ Adolat. T – 2018. 255-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son 1-modda.
6. Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida” O'RQ-1054. 10.04.2025. Qonunlar loyihalarini.